**Аннотация:** В данной статье исследуется методика целенаправленного отбора мультимодальных текстов в образовательном процессе и разработки на их основе учебных заданий, ориентированных на использование доказательств. Рассматриваются вопросы развития у обучающихся навыков анализа информации, выявления доказательств, сопоставления различных источников и формулирования обоснованных выводов посредством интеграции вербальных, визуальных и графических компонентов мультимодальных текстов. Результаты опытно-экспериментальной работы подтвердили эффективность разработанной методики, продемонстрировав значительное улучшение учебных результатов учащихся экспериментальной группы. Полученные результаты обосновывают педагогическую значимость заданий, основанных на доказательствах, в развитии мультимодальной грамотности.

**Ключевые слова:** мультимодальный текст, мультимодальная грамотность, доказательство, обучение, основанное на доказательствах, учебное задание, критическое мышление, анализ информации, визуальная грамотность, анализ текста, педагогическая методика.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim muhitida o'quvchilar axborotni nafaqat an'anaviy yozma matnlar orqali, balki grafik, jadval, diagramma, infografika, fotosurat, audio va videomateriallar orqali ham qabul qilmoqda. Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga keng kirib kelishi natijasida multimodal matnlar o'quvchilarning axborotni idrok etishi, qayta ishlashi va undan foydalanishida muhim vositaga aylandi. Bunday sharoitda o'quvchidan nafaqat matn mazmunini tushunish, balki turli axborot shakllarini o'zaro bog'lash, ularning ishonchligini baholash, dalillarni ajratish hamda ular asosida mustaqil xulosa chiqarish talab etiladi.



Multimodal matnlar bilan ishlash metodikasining muhim yo'nalishlaridan biri o'quv topshiriqlarini dalillarga asoslangan faoliyat bilan bog'lashdir. Bunday topshiriqlar o'quvchini tayyor ma'lumotni qabul qilishdan faol tahlil qilishga yo'naltiradi. O'quvchi matn, jadval, grafik yoki boshqa vizual manbalardan dalillarni izlaydi, ularni taqqoslaydi hamda o'z fikrini aniq faktlar bilan asoslaydi. Shu sababli multimodal matnlarni pedagogik maqsadga muvofiq tanlash mezonlarini belgilash va ular asosida samarali o'quv topshiriqlari tizimini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-metodik muammo hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi multimodal matnlarni tanlash hamda dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Multimodal matnlar va multimodal savodxonlik masalalari zamonaviy pedagogika, lingvodidaktika hamda ta'lim texnologiyalari yo'nalishlarida keng tadqiq etilmoqda. Tadqiqotlarda matn tushunchasining an'anaviy verbal chegaralardan chiqib, tasvir, grafik, audio, video va boshqa semiotik resurslar bilan integratsiyalashuvi ta'lim mazmunini tashkil etishning yangi shakli sifatida baholanadi. O'zbek tadqiqotchilarining ishlarida ham raqamli ta'lim muhiti, media ta'lim, axborot savodxonligi va zamonaviy pedagogik texnologiyalar masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Xususan, M. Q. Abdullayeva va B. X. Xodjayevtadqiqotlarida ta'lim oluvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish, raqamli vositalardan foydalanish hamda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning metodik asoslari yoritilgan <sup>[1, 2]</sup>. Ushbu yondashuvlar multimodal matnlarni o'quv jarayoniga kiritish va ulardan samarali foydalanish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Rus tilidagi ilmiy adabiyotlarda multimodal ta'lim mazmuni ko'pincha media ta'lim, media savodxonlik va vizual axborotni tahlil qilish tushunchalari bilan bog'liq holda o'rganilgan. E. S. Polat tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish hamda axborot resurslari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish masalalariga e'tibor qaratilgan <sup>[3]</sup>.

A. V. Fedorov esa media savodxonlikni rivojlantirishda media matnlarni tahlil qilish, ularning mazmuni va axborot xususiyatlarini baholashning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslagan <sup>[4]</sup>.

Xorijiy tadqiqotlarda multimodallik masalasi yanada kengroq nazariy va metodik nuqtayi nazardan o'rganilgan. Kress va van Leeuwen multimodal matnlarni turli semiotik resurslarning o'zaro ta'siri asosida shakllanadigan kommunikativ birlik sifatida talqin qiladilar <sup>[5]</sup>. Ularning vizual grammatika konsepsiyasi tasvir, rang, kompozitsiya va boshqa vizual elementlarning mazmun yaratishdagi rolini tushuntiradi.

Jewitt multimodallikni ta'lim jarayonida turli kommunikativ vositalarning o'zaro integratsiyasi sifatida ko'rib, o'quvchilarning mazmunni bir nechta modal kanallar orqali yaratishi va talqin qilishiga alohida e'tibor qaratadi <sup>[6]</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mayerning multimedia ta'lim nazariyasida verbal va vizual axborotning muvofiqlashtirilgan holda taqdim etilishi o'quvchilarning kognitiv faoliyatini qo'llab-quvvatlashi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan <sup>[7]</sup>.

Hobbs media savodxonlikni rivojlantirishda axborotni tahlil qilish, baholash hamda media xabarlarining maqsadini anglash ko'nikmalarini muhim deb hisoblaydi. Cope va Kalantzis esa yangi media muhitida savodxonlik tushunchasining tobora kengayib borayotganini ta'kidlab, o'quvchilarni turli modal resurslar bilan ishlashga o'rgatish zarurligini ko'rsatadilar <sup>[8]</sup>.

Mavjud tadqiqotlar tahlili multimodal matnlarning o'quvchilarning axborotni idrok etishi va tahlil qilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Biroq multimodal materiallarni tanlash mezonlari bilan dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarini yagona metodik tizim sifatida bog'lash masalasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, o'quvchining dalillarni aniqlashi, turli modal manbalarni taqqoslashi hamda o'z xulosasini mustaqil ravishda asoslashiga yo'naltirilgan topshiriqlarni ishlab chiqish bo'yicha amaliy metodik mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Mazkur tadqiqot aynan shu metodik bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Multimodal matnlarni tanlash va ular asosida dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasining samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida multimodal matn bilan ishlash, matndan dalillarni ajratib olish, dalillarni boshqa axborot manbalari bilan taqqoslash, dalil va xulosani farqlash hamda o'z fikrini matn, grafik, jadval va vizual ma'lumotlar asosida dalillar bilan asoslash ko'nikmalarining shakllanish darajasi baholandi.

Tajribada jami 120 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Ular tajriba va nazorat guruhlariga teng taqsimlandi. Tajriba guruhida 60 nafar, nazorat guruhida esa 60 nafar o'quvchi qatnashdi. Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda, ya'ni dastlabki diagnostika, pedagogik ta'sir va yakuniy nazorat bosqichlarida amalga oshirildi. Dastlabki diagnos-



tika bosqichida ikki guruh o'quvchilariga mazmuni va murakkablik darajasi bir xil bo'lgan topshiriqlar taqdim etildi. Topshiriqlar tarkibiga axborotli matnni o'qish, matndagi asosiy fikrni aniqlash, grafik yoki diagrammadan ma'lumot olish, ikki xil axborot manbasidagi ma'lumotlarni taqqoslash hamda berilgan xulosani dalillar bilan asoslash kabi faoliyatlar kiritildi. Dastlabki diagnostika natijalari tajriba guruhida o'quvchilarning o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi 54,3 %ni, nazorat guruhida esa 53,8 %ni tashkil etganini ko'rsatdi. Guruhlar o'rtasidagi farq 0,5 foiz punktiga teng bo'lib, tajriba boshlanishidan oldin ularning tayyorgarlik darajasi deyarli bir xil bo'lgan.


Keyingi bosqichda tajriba guruhida ishlab chiqilgan metodika asosida multimodal matnlar bilan ishlashga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlari tizimli ravishda qo'llanildi. O'quv materiallari tarkibida verbal matn, jadval, diagramma, infografika, xarita, fotosurat va qisqa videomateriallar o'zaro bog'langan holda taqdim etildi. Har bir topshiriq o'quvchidan faqat axborotni qayta aytib berishni emas, balki muayyan dalilni topish, uning manbasini aniqlash, dalilning mazmunini izohlash, turli multimodal manbalar o'rtasidagi muvofiqlik yoki ziddiyatni aniqlash hamda yakuniy xulosani dalillar asosida shakllantirishni talab qildi.

Metodik tajriba davomida tajriba guruhidagi o'quvchilarning dalillarni aniqlash va ulardan foydalanish ko'rsatkichlari bosqichma-bosqich oshib bordi. Dastlab o'quvchilarning 48,3 %i matnda berilgan asosiy dalilni to'g'ri ajrata olgan bo'lsa, tajriba yakunida bu ko'rsatkich 83,3 %ga yetdi. Grafik va diagrammalardagi ma'lumotlarni matn mazmuni bilan bog'lash ko'rsatkichi 41,7 %dan 78,3 %gacha oshdi. Bir nechta axborot manbalarini taqqoslash asosida xulosa chiqarish ko'rsatkichi 36,7 %dan 75,0 %gacha ko'tarildi. O'z fikrini kamida ikki mustaqil dalil bilan asoslash qobiliyatiga ega o'quvchilar ulushi esa 31,7 %dan 71,7 %gacha oshdi.

Tajriba va nazorat guruhlarining yakuniy diagnostika natijalari ham metodikaning samaradorligini tasdiqladi. Yakuniy baholashda tajriba guruhining o'rtacha natijasi 81,7 %ni, nazorat guruhining o'rtacha natijasi esa 62,4 % ni tashkil etdi. Tajriba guruhida dastlabki va yakuniy natijalar o'rtasidagi o'sish 27,4 foiz punktiga teng bo'lgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 8,6 foiz punktini tashkil etdi. Demak, tajriba guruhidagi o'sish nazorat guruhiga nisbatan 18,8 foiz punktiga yuqori bo'ldi.

Tajriba natijalarini mezonlar kesimida tahlil qilish ham sezilarli ijobiy dinamikaning ko'rsatdi. Tajriba guruhida dalillarni aniqlash bo'yicha o'rtacha natija 48,3 %dan 83,3 %gacha, multimodal manbalarni integratsiyalash bo'yicha natija 41,7 %dan 78,3 %gacha, manbalarni taqqoslash bo'yicha natija 36,7 %dan 75,0 %gacha hamda dalillangan xulosa chiqarish bo'yicha natija 31,7 %dan 71,7 %gacha oshdi.

Mazkur ko'rsatkichlar o'quv topshiriqlarining faqat bitta ko'nikmani emas, balki multimodal axborotni idrok etishdan boshlab dalillarga tayangan holda xulosa chiqarishgacha bo'lgan yaxlit faoliyatni rivojlantirganini ko'rsatadi. Quyidagi grafikda tajriba va nazorat guruhlarining tajribadan oldingi hamda tajribadan keyingi o'rtacha natijalari taqqoslanadi.



1-rasm: Tajriba va nazorat guruhlarining tajribadan oldingi hamda tajribadan keyingi natijalari taqqoslanishi

Grafikdagi ma'lumotlarga ko'ra, tajriba guruhining dastlabki 54,3 %lik ko'rsatkichi tajriba yakunida 81,7 % ga yetgan. Nazorat guruhida esa 53,8 %lik boshlang'ich natija 62,4 %gacha oshgan. Natijalar o'rtasidagi farq tajriba guruhida qo'llangan metodik yondashuvning o'quvchilarning dalillarga asoslangan fikrlash hamda multimodal axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatganini anglatadi.

Tajriba natijalari multimodal matnlarni maqsadli tanlash va ular asosida dalillarga asoslangan topshiriqlarni tizimli tashkil etish o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini sezilarli darajada faollashtirishini ko'rsatdi. Dastlabki diagnostika jarayonida tajriba guruhining o'rtacha natijasi 54,3 %, nazorat guruhiniki esa 53,8 % bo'lgani ikki guruhning tajriba boshlanishida deyarli bir xil tayyorgarlik darajasiga ega ekanini ko'rsatadi. Ular o'rtasidagi



atigi 0,5 foiz punkti farq tajriba davomida qayd etilgan keyingi tafovutlarning metodik ta'sir bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini tahlil qilish uchun boshlang'ich sharoitlarning yetarli darajada o'xshash bo'lganini anglatadi. Tajriba yakunida tajriba guruhida 81,7 %, nazorat guruhida esa 62,4 % natijaning qayd etilishi metodikaning samaradorligini ko'rsatuvchi asosiy empirik ko'rsatkichlardan biridir. Tajriba guruhidagi 27,4 foiz punktilik o'sish nazorat guruhidagi 8,6 foiz punktilik o'sishdan 18,8 foiz punktiga yuqori bo'ldi. Bu tafovut o'quvchilarning multimodal matnlar bilan oddiy tanishishidan ko'ra, ular asosida maxsus ishlab chiqilgan dalillarga asoslangan topshiriqlarni bajarishi yuqoriroq natija berganini ko'rsatadi. Nazorat guruhida ham ma'lum darajada ijobiy o'sish kuzatilgani tabiiy o'quv jarayoni, takrorlash hamda mavzularni o'zlashtirish bilan izohlanishi mumkin. Biroq tajriba guruhi-dagi o'sish sur'atining yuqoriligi metodik yondashuvning qo'shimcha pedagogik samaradorligini tasdiqlaydi.

Dalilni aniqlash ko'nikmasining 48,3 %dan 83,3 %gacha oshishi o'quvchilarning matndagi barcha ma'lumotlarni bir xil ahamiyatga ega deb qabul qilishdan voz kechib, muayyan fikrni tasdiqlovchi yoki rad etuvchi axborotni ajrata olishga o'rganganini ko'rsatadi. Bu natija multimodal matnlarni tanlash jarayonida axborotning ishonchlilik, aniqligi va mavzuga aloqadorligi kabi mezonlardan foydalanish muhimligini tasdiqlaydi. O'quvchi dalilni aniqlay olishi uchun matndagi asosiy g'oya bilan uni tasdiqlovchi fakt o'rtasidagi bog'liqlikni anglay olishi zarur. Shu sababli tajriba davomida "Matnda nima deyilgan?" savolidan tashqari, "Bu fikr qanday dalil bilan tasdiqlangan?" kabi savollarga asoslangan topshiriqlarning qo'llanilishi yuqori natijadorlikka xizmat qilgan.

Grafik va diagrammalarni matn bilan bog'lash ko'rsatkichining 41,7 %dan 78,3 %gacha oshishi multimodal savodxonlikning muhim komponentlaridan biri rivojlanganini ko'rsatadi. O'quvchilar dastlab vizual va verbal axborotni alohida qabul qilgan bo'lsalar, metodik tajribadan so'ng ularni yagona mazmuniy tizim sifatida tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Masalan, matnda berilgan statistik ma'lumotni diagrammadagi ko'rsatkich bilan solishtirish, grafikdagi o'zgarish sabablarini matn asosida izohlash yoki infografikadagi ma'lumotni yozma dalil bilan tasdiqlash kabi topshiriqlar o'quvchidan bir nechta axborot kanalini bir vaqtning o'zida tahlil qilishni talab qildi.

Bir nechta manbalarni taqqoslash ko'rsatkichining 36,7 %dan 75,0 %gacha oshgani o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash qobiliyatida sezilarli o'zgarish yuz berganini ko'rsatadi. Ushbu natija ayniqsa muhim, chunki multimodal matnlar bilan ishlashda turli manbalardagi ma'lumotlar doimo bir-birini to'liq takrorlamaydi. Ayrim hollarda matn, grafik va tasvir o'rtasida mazmuniy tafovut yoki qarama-qarshilik bo'lishi mumkin.

Tajriba davomida o'quvchilar bunday tafovutlarni aniqlash, qaysi ma'lumot qaysi dalil bilan qo'llab-quvvatlanganini baholash hamda o'z xulosasini manbalararo taqqoslash asosida shakllantirishga yo'naltirildi. Natijadagi 38,3 foiz punktilik o'sish aynan ushbu faoliyatlarning izchil tashkil etilgani bilan izohlanadi. O'z fikrini kamida ikki mustaqil dalil bilan asoslash ko'rsatkichining 31,7 %dan 71,7 %gacha oshishi tajriba davomida kuzatilgan eng muhim sifat o'zgarishlaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Dastlab o'quvchilarning katta qismi o'z javoblarini shaxsiy fikr yoki umumiy mulohaza bilan cheklagan bo'lsa, metodik ta'sirdan so'ng ularning aksariyati o'z fikrini aniq fakt, statistik ma'lumot, grafik ko'rsatkichi yoki boshqa axborot manbasiga tayangan holda asoslashga harakat qildi. Bu holat dalillarga asoslangan topshiriqlarning o'quvchilarda nafaqat axborotni tushunish, balki fikrni mantiqiy asoslash kompetensiyasini ham samarali shakllantirishini ko'rsatadi.

**1-jadval: Tajriba va nazorat guruhlarining tajribadan oldingi va keyingi umumiy natijalari**

| Guruh          | Ishtirokchilar soni | Dastlabki natija (%) | Yakuniy natija (%) | O'sish (foiz punkt) |
|----------------|---------------------|----------------------|--------------------|---------------------|
| Tajriba guruhi | 60                  | 54,3                 | 81,7               | +27,4               |
| Nazorat guruhi | 60                  | 53,8                 | 62,4               | +8,6                |
| Farq           | 0                   | +0,5                 | +19,3              | +18,8               |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tajriba boshlanishida ikki guruh o'rtasidagi farq atigi 0,5 foiz punktni tashkil etgan. Tajriba yakunida esa tajriba guruhi natijasi nazorat guruhi natijasidan 19,3 foiz punktiga yuqori bo'lgan. Tajriba guruhida 27,4 foiz punktilik o'sish kuzatilgan bo'lsa, nazorat guruhida esa 8,6 foiz punktilik o'sish qayd etilgan.

**2-jadval: Tajriba guruhida multimodal matnlar bilan ishlash ko'nikmalarining o'zgarishi**

| Baholash mezon                            | Tajribagacha (%) | Tajribadan keyin (%) | O'sish (foiz punkt) |
|-------------------------------------------|------------------|----------------------|---------------------|
| Dalilni to'g'ri aniqlash                  | 48,3             | 83,3                 | +35,0               |
| Grafik va diagrammani matn bilan bog'lash | 41,7             | 78,3                 | +36,6               |
| Bir nechta manbani taqqoslash             | 36,7             | 75,0                 | +38,3               |
| Fikrni kamida ikki dalil bilan asoslash   | 31,7             | 71,7                 | +40,0               |



Mazkur jadval tajriba guruhida barcha mezonlar bo'yicha ijobiy dinamika kuzatilganini ko'rsatadi. Eng yuqori o'sish o'quvchilarning o'z fikrini kamida ikki mustaqil dalil bilan asoslash ko'nikmasida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich 31,7 %dan 71,7 %gacha oshib, 40,0 foiz punktilik o'sishni tashkil etgan. Eng past boshlang'ich ko'rsatkich ham aynan shu mezonda kuzatilgan. Bu holat tajriba boshlanishida o'quvchilarning o'z fikrini mustaqil ravishda dalillar bilan asoslash qobiliyati yetarli darajada shakllanmaganini, metodik ta'sirdan so'ng esa mazkur ko'nikmada sezilarli rivojlanish kuzatilganini ko'rsatadi.

3-jadval: Tajriba-sinov natijalarining umumlashtirilgan statistik ko'rsatkichlari

| Ko'rsatkich               | Tajriba guruhi  | Nazorat guruhi |
|---------------------------|-----------------|----------------|
| O'quvchilar soni          | 60              | 60             |
| Dastlabki o'rtacha natija | 54,3%           | 53,8%          |
| Yakuniy o'rtacha natija   | 81,7%           | 62,4%          |
| Mutlaq o'sish             | 27,4 foiz punkt | 8,6 foiz punkt |
| Yakuniy guruhlararo farq  | 19,3 foiz punkt | –              |
| O'sishlar farqi           | 18,8 foiz punkt | –              |

Natijalar orasidagi eng yuqori o'sish o'z fikrini kamida ikki mustaqil dalil bilan asoslash mezonida kuzatilib, 40,0 foiz punktni tashkil etdi. Keyingi yuqori o'sish manbalarni taqqoslash mezonida qayd etilib, u 38,3 foiz punktni tashkil qildi. Multimodal axborotni integratsiyalash mezonida 36,6 foiz punkti, dalilni aniqlash mezonida esa 35,0 foiz punktilik o'sish kuzatildi. Ushbu ko'rsatkichlar o'quv topshiriqlari tizimida oddiy reproduktiv savollardan ko'ra tahlil qilish, taqqoslash, integratsiyalash va dalillashga yo'naltirilgan topshiriqlar ustuvor bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. Grafikda ifodalangan umumiy natijalar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi.

Tajriba guruhidagi ko'rsatkichning dastlabki 54,3 %dan yakuniy 81,7 %gacha oshishi o'quvchilarning umumiy natijasi qariyb 1,5 baravar ortganini ko'rsatadi. Nazorat guruhidagi 53,8 %dan 62,4 %gacha bo'lgan o'sish esa nisbatan past sur'atni namoyon etadi. Ikki guruh o'rtasidagi yakuniy 19,3 foiz punktilik farq tajriba yakunida metodik ta'sir natijasida yuzaga kelgan tafovutni yaqqol ko'rsatadi.

Tajriba natijalari asosida multimodal matnlarni tanlashda uchta asosiy pedagogik talabning muhimligi aniqlandi.

*Birinchi*dan, matn mazmuni o'quvchilarning yosh va kognitiv imkoniyatlariga mos bo'lishi lozim.

*Ikkinchi*dan, multimodal komponentlar, ya'ni matn, grafik, jadval, tasvir yoki video bir-birini mazmunan to'ldirishi hamda o'quvchini qo'shimcha tahlilga undashi kerak.

*Uchinchi*dan, tanlangan material asosida o'quvchi dalilni topishi, uni baholashi, taqqoslashi va undan xulosa chiqarishi mumkin bo'lgan topshiriqlar tizimi ishlab chiqilishi zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, multimodal matnning o'zi avtomatik ravishda yuqori darajadagi o'quv natijasini ta'minlamaydi. Natijadorlik ko'proq multimodal materialning qanday tanlangani va u asosida qanday topshiriqlar ishlab chiqilganiga bog'liq. Agar o'quvchiga faqat rasmni ko'rish yoki diagrammadagi ma'lumotni ko'chirib olish topshirilsa, uning kognitiv faolligi cheklangan darajada qoladi. Aksincha, o'quvchidan diagrammadagi ma'lumotni matndagi dalillar bilan solishtirish, qarama-qarshi fikrlarni aniqlash, manbalarning ishonchililigini baholash hamda yakuniy xulosani kamida ikki dalil bilan asoslash talab qilinsa, multimodal matn yuqori darajadagi tafakkur jarayonlarini faollashtiradi. Shu nuqtayi nazardan, ishlab chiqilgan metodikani "multimodal matn tanlash – dalilni aniqlash – manbalarni integratsiyalash – dalillarni taqqoslash – xulosa chiqarish – xulosani asoslash" izchilligida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Tajriba natijalaridagi 27,4 foiz punktilik umumiy o'sish hamda alohida mezonlarda 35,0–40,0 foiz punktigacha yetgan ijobiy dinamika mazkur metodik ketma-ketlikning ta'lim jarayonidagi amaliy samaradorligini ko'rsatadi. Natijalar multimodal matnlar bilan ishlash metodikasini faqat axborotni idrok etish vositasi sifatida emas, balki dalillarga asoslangan fikrlash, tanqidiy tahlil va mustaqil xulosa chiqarishni rivojlantiruvchi pedagogik texnologiya sifatida qarash zarurligini asoslaydi.

## XULOSA

Tadqiqot natijalari multimodal matnlarni maqsadli tanlash va ular asosida dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish o'quvchilarning axborotni tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali metodik vosita ekanini ko'rsatdi. Tajriba guruhida umumiy natijaning 54,3 %dan 81,7 %gacha oshishi ishlab chiqilgan metodikaning ijobiy pedagogik ta'sirini tasdiqladi. Dalilni aniqlash, grafik va matn integratsiyalash, manbalarni taqqoslash hamda fikrni dalillar bilan asoslash ko'rsatkichlaridagi sezilarli o'sish o'quv-



chilarning multimodal savodxonligi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanganini ko'rsatadi. Metodikada multimodal matnni tanlash, dalilni aniqlash, manbalarni taqqoslash va asoslangan xulosa chiqarish bosqichlarining izchil tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvni turli fanlar va ta'lim bosqichlarida qo'llash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdullayeva M. Q. Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning axborot kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – Toshkent.
2. Xodjayev B. X. Pedagogik texnologiyalar va ta'lim oluvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent.
3. Полат Е. С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – Москва: Академия, 2009.
4. Федоров А. В. Медиаобразование и медиаграмотность. – Таганрог: Кучма, 2004.
5. Kress G., van Leeuwen T. Reading Images: The Grammar of Visual Design. – London: Routledge, 2006.
6. Jewitt C. The Routledge Handbook of Multimodal Analysis. – London: Routledge, 2016.
7. Mayer R. E. Multimedia Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
8. Cope B., Kalantzis M. Multiliteracies: Literacy Learning and the Design of Social Futures. – London: Routledge, 2000.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №8(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.